
XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI NISHONLANDI

1925 yilda Jenevada bo'lib o'tgan Butunjahon konferensiyasida 1 iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida belgilangan edi.

Ushbu sana 1950 yildan buyon butun dunyoda bayram qilib kelinadi. O'zbekiston Mustaqilligi e'lon qilingandan buyon yurtimizda ham Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni keng nishonlanmoqda.

Bolajonlarning ushbu bayrami Qo'shtepa tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan karantin qoidalariga amal qilgan holda nishonlandi.

Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan o'tkazilgan ko'rik tanlov g'oliblari, kam ta'minlangan oila farzandlari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilarini bo'lim mudiri I. Maxmudova va DMTT rahbarlari bayram bilan muborakbod etishib, ularga sovg'alar ulashdilar.



2020-06-02 10:00:10